
Har bir yakka-yolg'iz, nogironligi bo'lgan hamda bemor fuqarolar tibbiyot xodimlari tomonidan nazoratga olingan

Anomal sovuq kunlarda Farg'ona shahar tibbiyot birlashmasining barcha tibbiyot xodimlari ham o'z faolliklarini ko'rsatmoqdalar. Oilaviy poliklinikalarning umumiy amaliyot shifikorlari, patronaj hamshiralar tomonidan barcha yakka-yolg'izlar, nogironligi bo'lgan, bemor fuqarolar holidan kunlik nazorat o'rnatilgan.

Xonadonlarga tashrif davomida mazkur oilalarning kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko'rganligi, xona harorati, oziq-ovqat zahirasi va boshqa muammolar yuzasidan aniq choralar ko'rilmogda. Fuqarolar tomonidan bildirilgan muammolar bo'yicha shahar hokimligi va tibbiyot birlashmasida tashkil etilgan shtablarga ma'lumotlar tezkorlik bilan kiritilmogda.

Ma'lumotlar asosida fuqarolarga shahar hokimligi tomonidan elektr isitgichlar, dori vositalari, kiyim-kechaklar va oziq-ovqat mahsulotlari ajratilmogda, davolanishi zarur bo'lgan bemorlar esa shifoxonalarga yotqizilmogda.

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati

2023-01-23 09:28:49